

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 811.512.133

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, f.f.d
J.Ibragimov taqrizi asosida*

O'ZBEK TILIGA AYNAN O'ZLASHTIRILGAN MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING IMLOSI VA TALAFFUZI

Maxammadov Bobir

*Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi, f.f.f.d
(PhD)*

SPELLING AND PRONUNCIATION OF TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE ADAPTATION OF MICROSOFT WINDOWS OPERATING SYSTEM

Makhammadov Bobir

*Independent researcher at Andijan State Institute of Foreign
Languages, PhD in Philology (Doctor of Philosophy)*

ОРФОГРАФИЯ И ПРОИЗНОШЕНИЕ ТЕРМИНОВ ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ MICROSOFT WINDOWS, АДАПТИРОВАННЫХ К УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Махаммадов Бобир

*Соискатель Андижанского государственного института иностранных языков, кандидат
филологических наук (PhD)*

Annotatsiya: Microsoft Windows operatsion tizimida qo'llanilgan o'zbek tilidagi terminlarining imlosi va talaffuzi aynan ushbu maqolada yoritiladi. Bundan tashqari maqolada Windows terminlari orasida uchraydigan o'zlashma va tarjima holatidagi terminlarning yaroqliligi va berilishi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: o'z qatlam, o'zlashma qatlam, leksema, imlo, talaffuz, QR-kod, cache memory.

Abstract: This article highlights the spelling and pronunciation of terms in the Uzbek language as used in the Microsoft Windows operating system. Additionally, the article examines the usage and validity of both adapted and translated terms that appear among Windows terminology.

Keywords: native layer, adapted layer, lexeme, spelling, pronunciation, QR code, cache memory.

Аннотация: В данной статье рассматриваются орфография и произношение терминов на узбекском языке, используемых в операционной системе Microsoft Windows. Кроме того, в статье отдельно изучается использование адаптированных и переведённых терминов Windows, а также их валидность.

Ключевые слова: собственный слой, адаптированный слой, лексема, орфография, произношение, QR-код, кэш-память.

Kirish. Microsoft Windows operatsion tizimida qo'llanilgan o'zbek tilidagi terminlarining imlosi va talaffuzi aynan ushbu maqolada yoritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada Windows terminlari orasida uchraydigan o'zlashgan va tarjima qilingan terminlarning qo'llanilishi hamda validligi alohida o'rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tahlil qilinayotgan maqolada terminlar o'zbek

tilshunos olimlari R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasi, B.Mengliyev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek tili" darslik va til korpuslarini yaratish bo'yicha maqolalari, M.Umarxo'jayevning "Umumiy tilshunoslik" nomli o'quv qo'llanmalari va M.Umarxo'jayev tashabbusi bilan tashkil etilgan lug'atshunoslik va



E-mail:
maxammadovuz@gmail.com

Tel: (97) 378 – 34 -45

tarjimashunoslik markazi (ALTAIIM) jamoasi tomonidan maktab o'quvchilari uchun turli fanlardan yaratilgan, mobil ilovalar uchun moslashadigan ko'p tilli lug'atida foydalanilgan terminlar yordamida tahlil qilindi.

O'zbek tiliga aynan o'zlashgan Windows operatsion tizimidagi terminlar to'g'risida fikr-mulohazalarni olib borishdan oldin o'zbek tili leksikasidagi o'z va o'zlashma qatlam to'g'risida ma'lumotlar berilishi kerak. Ushbu faslda mobil ilovalardagi aynan o'zlashgan so'zlar va ularning imlosi hamda talaffuzi bo'yicha tahlil olib boriladi.

Barchamizga ma'lumki, har bir tilning, shu jumladan, o'zbek tilining ham kelib chiqishiga ko'ra 2 xil sof va o'zlashgan leksemalari mavjud. Sof o'zbek tilidagi leksemalar qarindosh bo'lgan tillardan tarqalgan, asrlar davomida birgalikda qo'llanilganga aytiladi.

O'zbek tili leksemalari qatoriga rus tilidan va rus tili orqali Yevropa xalqlari tillaridan leksemalarning kirishi ikki muhim davrlarga bo'linadi:

1. O'rta Osiyo bosib olish davridagi voqealar;

2. Podsho hukumati ag'darilib, Rus hukumati tashkil topgan davrdan keyingi voqealar.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida sof va o'zlashgan ya'ni o'z va o'zlashma qatlam bo'yicha ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari faslda tahlil qilinishi kerak bo'lgan aynan o'zlashgan leksemalar to'g'risida unutmash kerak. Leksemalarning aynan o'zlashishida quyidagi belgilarga albatta to'xtalib o'tish zarur, chunki bunday belgilar imlo va talaffuzda to'g'ri yozish hamda talaffuz qilish uchun xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot obyekti hisoblangan Windows operatsion tizimi terminologiyasi orasida turli ilovalar uchraydi, xususan, "Yandex.taxi", "Telegram", "PayME", "Google chrome" terminlarining o'zbek tilidagi talaffuzi va imlosi haqida qisqacha so'z yuritiladi.

"Google chrome" dasturida uchraydigan atamalardan biri "**rejim**" bo'lib, ushbu atama fransuz tilidan kirib kelgan "**regime**" tarzida yoziladi. O'zbek tiliga aynan o'zlashish jarayonida faqatgina ushbu atamaning asl tilidagi talaffuz shakli o'zbek tiliga ko'chadi. Ingliz-o'zbekcha lug'atlarda ham ushbu atamaning tarjimasini "**rejim**" tarzida berib o'tilgan. Demak, imloda qo'shimchalar qo'shilishi natijasida birorta fonetik o'zgarishlar yuz bermaydi,

faqat talaffuzda ushbu so'z chetdan o'zlashganligi sababli j harfli dj tarzida talaffuz qilinadi.

"**Ekran**" atamasi rus va o'zbek tilida "screen" atamasining tarjimasi hisoblanadi, demak rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. Talaffuz hamda imlosi bo'yicha tahlil qilinganda, ekran so'zi 5 harf va 5 tovushdan iborat, so'z boshidagi e harfi ekran, eksport kabi o'zlashgan so'zlarda old qator o'rta-keng hamda lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi. Lug'aviy va sintaktik shakl yasovchilar qo'shilsa ham imloda biror o'zgarishga uchramaydi.

"**Veb-sayt**" qo'shma atamasi ushbu mobil ilovada ko'p uchraydi. Ingliz tilida "web-site" tarzida uchraydi, o'zbekcha lug'atlarda har ikkala so'zning muqobili berilgan, lekin alohida tarjima qilinganda ma'no bo'yicha maqsadga yetib borilmaydi, shu sababli "**veb-sayt**" yoki "**veb-sahifa**" tarzida qoldirilgan maqsadga muvofiq. O'zbek tilining imlo qoidalariga lug'atida ushbu atama juft so'z bo'lganligi sababli chiziqcha bilan yozilishi belgilangan[1]. Talaffuz qilinganda mazkur juft so'zning birinchi qismidagi {b} harfi {p} tarzida talaffuz qilinish holati mavjud.

Navbatdagi "Payme" mobil ilovasi aynan olingan terminlarining imlosi va talaffuzi bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, axborot texnologiyalariga yangi kirib kelgan so'zlardan biri bu vidjetlar. Inglizcha-o'zbekcha lug'atlarida ham o'zbek tilining imlo lug'atida ham ushbu atamani uchratish mushkul. Ingliz tili imlosida ushbu atama "**widget**" tarzida yoziladi. O'zbek tiliga aynan o'zlashtirilish jarayonida dj harfi to'liq "**vidjet**" tarzida ifodalanishi maqsadga muvofiq va talaffuzda ham dj harfi to'liq [vidjet] tarzida talaffuz qilinishi maqsadga muvofiq.

"**Virtual karta**" – birikmasi har ikkala atama aynan o'zlashgan atamalar sirasiga kiradi. O'zbek tilining imlo qoidalarida ikki yonma-yon keladigan unlilar imlosi qoidasida – **ua** birikma unlilariga bir-ikkita misol keltirilgan, jumladan, *shuaro*, *burjua* va ushbu unlilar yonma-yon kelsa qanday aytilsa shunday yoziladi deb belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra "**virtual**" atamasida yozilish va talaffuz qilishini bir xil bo'ladi. "Virtual" atamasi sifat so'z turkumiga mansub bo'lganligi sababli barcha qo'shimchalar "karta" atamasiga qo'shiladi va shunday holatda ham karta atamasida na talaffuzda, na imloda o'zgarish bo'ladi.

"Payme" mobil ilovasida arab tilidan aynan o'zlashgan terminlardan biri "**hisob**" so'zi bo'lib,

imloda soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshilsa ham ushbu atama bilan biror oʻzgarish boʻlmaydi, talaffuzda esa bilinar bilinmas hisob soʻzidagi **b** harfi **p** tarzida talaffuz qilinadi. Xuddi shunday *raqam, ma'lumot, ruxsat, harakat* kabi arab tilidan aynan oʻzlashgan atamalar koʻplab uchraydi. Ularning barchasi imlo va talaffuzda bir xil holda yoziladi.

Garchi “Payme” mobil ilovasi oʻzbek dasturchilari tomonidan yaratilgan boʻlsada, undagi aksariyat terminlar toʻliq tarjima qilinmagan va muqobillari tanlanmagan. Masalan, toʻlov xizmatlari ruknidagi barcha xizmat turlari umuman tarjima qilinmagan, balki muqobili topilmagan.

“Telegram” mobil ilovasidagi terminlarni tahlil qilish jarayonida ham xuddi yuqoridagi mobil ilovalarga oʻxshab aksariyat aynan oʻzlashgan atamalar arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlardir. Masalan, *xabarlar, guruh, xotira, tovush, tarjimayi hol, jildlar, rasm, siyosat kabilar*. Bundan tashqari boshqa xalqaro tillardan oʻzlashgan atamalar ham mavjud, misol tariqasida *chat, stiker, emoji, kontaktlar, QR-kod, onlayn, seans* kabi soʻzlar bunga misol boʻla oladi.

Ushbu mobil ilovada “*ism*” va “*video*” kabi aynan oʻzlashgan soʻzlar mavjud. Agar ularni talaffuz va imlo jihatdan birma bir tahlil qilinadigan boʻlsa, “*ism*” – arab tilidan kirib kelgan atama hisoblanadi [2] va uning imlodagi koʻrinishi ham xuddi shunday uch harfdan iborat, yaʼni bitta unli ikkita undosh harflardan, shulardan – s til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz, - m – lab – lab undoshi, portlovchi, jarangli va - i unlisi old qator, tor unli va lablanmagan sanaladi, lekin talaffuzda – s tovushidan keyin {i} tovushi ortish holati ham uchraydi.

“*Video*” soʻzini tahlil qiladigan boʻlsak, chetdan kirib kelganligi bois ikkita unli yonma-yon kelish holati ham kuzatiladi. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini unli harflar imlosida yonma-yon kelgan unlilar berilgan, lekin aynan –*eo* unlilarining bir biriga yaqin kelishi boʻyicha fikr berilmagan. Ushbu soʻz tarkibida 5 ta harf va 6 ta tovush mavjud desak, adashmagan boʻlamiz, sababi – *eo* yonma-yon kelgan unlilarda oʻrtada “y” aytilsa ham asl holicha imloda yozilaveradi.

“Telegram” mobil ilovasida yana bir lugʻatlar uchramaydigan va rus hamda oʻzbek tillariga oʻz holicha oʻtib kelayotgan “*bot*” nomli atama mavjud. Bir qarashda bu soʻz juda oddiy koʻrinadi, lekin bu atamaning oʻzbekcha

etimologiyasi berilgan, faqatgina oʻzbek tilining imlo lugʻatida ushbu atama bilan shakli bir xil soʻz uchraydi va bularning maʼnolari bir biridan butunlay farq qiladi. Mobil ilovada uchraydigan “*bot*” soʻzining maʼnosi “*robot*” atamasidan olingan va jarayonlarni avtomatik boshqarish maʼnosida qoʻllaniladi. 3 harf va 3 tovushdan iborat, imlo va talaffuzda ayni tarzda aytiladi va yoziladi. Ushbu atamaga “Oddiy foydalanuvchi ishlatadigan interfeyslar orqali maʼlum harakatlarni avtomatik va/yoki belgilangan jadval boʻyicha bajaradigan maxsus dastur” deya taʼrif berilgan[3].

Yana bir qiziq holat, ingliz tilida “*channel*” soʻzi lugʻatlarda berilgan va uning maʼnosi “*suv oqadigan kanal*” maʼnosida kelgan, lekin keyinchalik insoniyat hayotiga televideniye kirib kelgandan soʻng ingliz tilida aynan mana shu atamaning omonimlik xususiyati paydo boʻlgan, natijada “*channel*” soʻzi teledasturlar uchun qoʻllaniladigan kanal maʼnosida rus tili orqali oʻzbek tiliga aynan oʻzlashdi. Koʻrinib turganidek, “*channel*” tuzilish jihatdan oʻzbek tilidagidan birozgina farq qiladi, fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda, “*kanal*” tarzida toʻgʻridan-toʻgʻri kirib keladi.

Boshqa mobil ilovalarda boʻlgani kabi “Yandex.taxi” mobil ilovasida ham aynan oʻzlashtirilgan terminlarni uchratish mumkin. Xususan, barcha uchun tanish boʻlgan “*taxi*” atamasi oʻzbek tilining imlo lugʻatida va mobil ilovada “*taksi*” tarzida berilgan, demak mobil ilovada imlo qoidalariga rioya qilingan holda ushbu soʻz tanlangan. 5 ta harf va 4 ta tovushdan iborat hamda qanday aytilsa, shunday yoziladi.

“*Darvoza*”, “*shahar*”, “*jamoat*”, “*yordam*” kabi atamalar ham fors-tojik va arab tillaridan aynan oʻzlashgan soʻzlar hisoblanadi. Ular orasidan “*shahar*” soʻziga egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda tovush tushish hodisasi sodir boʻladi, lekin boshqa holatlarda oʻz holicha saqlanib qoladi. Qolgan atamalarda talaffuz va imloda hech qanday oʻzgarish boʻlmasdan, shu holicha aytiladi va yoziladi.

Yakunda bir jihatni taʼkidlab oʻtish lozim, tilimizdagi oʻzlashma terminlarning ayrimlari tilimizning tabiatiga moslashadi. Ularni fonetik jihatdan moslashuvini quyidagilarda kuzatish mumkin:

1) fonemalarning qisqarishi: *avianos* (*авианосец*), *raketanos* (*ракетаносец*), *minanos*

(миноносец), farmatsevtik (фарматсевтический), akustik (акустический); 2) fonemalardagi tovush almashinuvi: mayoq (маяк), o'choq (очаг), plashch-palatka (плащ-палатка) kabilar. O'zbek tilida qurilishi jiddiy o'zgarishlarga uchragan o'zlashma terminlar kategoriyasiga qo'mita (комитет), bombardimon (бомбардировка), qo'mondon (командующий), pudrat (подряд) kabilarni kiritish o'rinlidir[4].

Mobil ilovalarda uchraydigan veb-sayt, veb-kamera, kesh-xotira kabi o'zlashtirilgan terminlarning chiziqli bilan yozilishi alohida e'tibor bilan o'rganilishi lozim. O'zbek tili imlo qoidasiga ko'ra, chiziqli asosan juft va takror so'zlarni yozishda qo'llaniladi. Bunday birikmalar ko'pincha sinonimik, antonimik, butun-bo'lak yoki yaqin ma'nodosh so'zlar asosida shakllanadi. Shu bois, yuqoridagi atamalarda chiziqli ishlatilishi ularning strukturaviy va semantik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq holda tahlil qilinishi zarur.

Mazkur terminlarning ingliz tilidagi ekvivalentlari — webcam, website, webpage, cache memory, compact disk, crossware — tarkibida esa chiziqli belgisi qo'llanilmaydi. Bu holat ingliz tilidagi terminologik tizimda birikmalar ko'pincha bitik shaklida (ya'ni bir so'z sifatida) berilishiga asoslanadi. O'zbek tilida esa bunday birliklar o'zlashtirilganda ko'pincha ikkita mustaqil leksik komponent sifatida qabul qilinadi va ular o'rtasiga chiziqli qo'yilishi kuzatiladi. Natijada, bu holat ingliz tilidan o'zlashtirilayotgan terminlarning morfografik jihatdan standart shakllaridan chetlanishga olib keladi[5].

Shunday qilib, terminlarning chiziqli bilan yozilishi O'zbek tilining ichki qonuniyatlari bilan belgilanayotgan bo'lsa-da, ularning manba tilidagi grafemik ko'rinishlariga nisbatan farqlanishi terminlarni standartlashtirish jarayonida muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

Qanchalik murakkab jarayon bo'lmasin, bugungi kunda terminlarni ixchamlashtirish, muomalaga kiritish uchun soddaroq ko'rinishga olib kelish, tarkiban ixchamlashtirish mutaxassislarning oldiga qo'yilayotgan birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Aks holda, ular termin maqomida bo'lmaydi, termin o'rnida qo'llanuvchi so'zlar va

so'z birikmalari sifatida tushuniladi. Natijada ularning turli variantlari vujudga keladi, dubletlar paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Demak, xulosa qilish mumkinki, aynan o'zlashgan so'zlar genetik jihatdan shakli bir xil, lekin talaffuzda biroz farq qilishi mumkin. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan "Google chrome", "Telegram", "Payme" va "Yandex.taxi" mobil ilovalarida qo'llanilgan terminlarning ko'pchiligi barcha dasturlarda bir xil tarzda qo'llanilgan, o'zbek tilida muqobili topilgan atamalar fors va arab tillaridan [6] o'zlashgan hamda boshqa dasturlarda ham xuddi shu shaklda uchraganligi sababli, yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida dubletlar paydo bo'lgan. Bundan tashqari mobil dasturlarining ingliz tilidagi terminlarning o'zbek tilidagi muqobillarini termin emas balki so'z va so'z birikmasi tarzida ham qabul qilish mumkin, chunki dasturlarda foydalanilgan aksariyat terminlardan kundalik sharoitimizda foydalanamiz va termin maqomini olishi uchun asos mavjud emas. Ularning imlo va talaffuziga to'xtaladigan bo'lsak, chetdan o'zlashganligi sababli, talaffuzda ayrimlarida tovush ortishi kuzatiladi, ayrimlari esa asl holicha talaffuz qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mengliyev B.R– Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) // darslik – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018, B.177-178
2. Nazarov. S., Nazarova. F., Adizova. N., Poltayeva.D., English-uzbek dictionary. – Toshkent-2013, B.699
3. Butayev. Sh., Irisqulov.M., Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at 70000 so'z va ibora // -Toshkent 2008, B.267
4. Begmatov.E., Madvaliyev A., O'zbek tilining imlo lug'ati 85000 dan ortiq so'z // Toshkent 2013, B.442
5. Rahmatullayev SH - O'zbek tilining etimologik lug'ati II (arab so'zlari va ular bilan hosilalar) //Toshkent 2003, B.175
6. Amirov D.M, Atadjanov A.YU va boshqalar – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati // Toshkent 2010, B.46